

**Zahriddin Muhammad Bobur orzu-armonlari ifodasi Bobur mirzo asarlari talqini xususida**

**O'zbekiston IIV 2-sonli Toishkent akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi  
Meyliyeva Saodat Ismatovna.**

...Siz Samarqand shahriga borganmisiz...Naqadar qadimiy, naqadar ulug'vor va salobatli bu shahar. Shahar ko'chalarida yursangiz ayniqsa Registon maydonidagi Sherdor madrasalari, Ulug'bek madrasasi va Tillakori madrasasi



salobatidan ruhingiz to'liqlanib ketadi. Ana, Sherdor madrasasi ikki burchida ohu quyoshga intilmoqda... U ilm-ziyo manbai, uning ortidan sherning bolasi ohuni quvib quyoshga intilmoqda... Ehhey, buni tasvirlagan usta ota-bobolarimizning tasavvur olami naqadar keng, fikrlash dunyosi naqadar teran... ta'lim dargohiga hurmati cheksizligi ustaning ilm-ziyo manbai to'g'risida tasavvuri aniq ravshan bayon etilgan . Bu tosh ko'chalarda

kimlarning oyog'i yetmagan deysiz... Buyuk sarkardalar Aleksandr Makedonskiy deysizmi, AmirTemur deysizmi, Mirzo Ulug'bekmi, Alisher Navoiy deysizmi...Mirzo Boburmi....-Ehhey kimlarni qancha davru-davronlarni ko'rmadi bu shahar. Aleksandr Makedonskiy bu shaharni bo'ysundirmoq uchun 4-5 marta



urinsada Spitamendek dovyurak yigitlari bor-bu mag'rur shaharni bo'ysundira olmagan edi...

Buyuk AmirTemur Samarqandni o'ziga poytaxt etib jahon fan va madaniyatining markaziga aylantirdi. U davlatni mo'g'ul zulmidan qutqarish va mamlakatni obod etish uchun necha bor Samarqandning qadimiy ko'chalarini kezdi ekan...Buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek necha kunlar, necha tunlar Samarqand osmonida yulduzlar sanab Ulug'bek Akademiyasida yuzlab olimlarga bosh bo'lib matematik, geometrik, trigonometrik va astronomiyada ilmiy tadqiqotlar o'tkazmadi deysiz..."Zichi jadidi Ko'ragoniy"dek 1018 ta yulduzlar jadvalini, ularning joylashgan o'rmini aniqlashning o'zi bo'lmagandir. Buyuk bobosi AmirTemurdek zotga munosib farzand bo'lish uchun 40 yil davlatning osoyishtaligi va barqaror ilmfan taraqqiyotini ta'minlashning o'zi bo'lmagandir. Bu yo'lda qancha din peshvolari qarshiligini yenga olgan ekan.Ulug' bobosiga munosib farzand bo'lish uchun qancha tunlarniSamarqand ko'chalarida bedor o'tkazdi ekan. Yosh Alisher Navoiyning yoshligi, hayotining eng yorqin damlari Hirotdan Samarqandga ilm istab Samarqand va Karmana ko'chalari bo'ylab Ulug'bek madrasalari ostonasida g'azallar yodlab necha kunu-tunlarni uyqusiz o'tkazdi ekan. 12 yoshli Zahriddin Muhammad Boburni eslang...Ota-bobolariga munosib farzand bo'lish uchun juda katta mashqqatli hayot yo'lini bosib o'tdi va jahon taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shib Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solib buyuk Amir Temur sulolasining munosib davomchisi bo'la oldi...

... 1494 yil erta tong Amir Temurning o'g'li Mironshoh avlodidan bo'lgan Umarshayx mirzo Farg'ona hukmdori bo'lsada Samarqand atrofida temuriyzodalar o'rtasida taxt talashishlar uni bezovta qilardi. Tunlarini bedor o'tkazgan Umarshayx mirzo yoz tunlarining birida tong sahar kabutarlari parvozini tomosha qilish uchun Axi qal'asi devoriga ko'tarildi. Kabutarlarini kuzata turib behosdan qal'a devoridan yiqilib tushadi va vafot etadi. Oradan fursat o'tib Farg'ona hukmdori bo'lgan otasining ishini davom ettirish bosh farzand bo'lgan Zahriddin Muhammad Bobur 11-12 yoshli shahzoda zimmasiga tushdi.

Ba'zan shu mavzu haqida gapira turib o'ylanib qolaman va o'quvchilardan so'rayman : -11-12 yoshli bolalar nechanchi sinf bo'lardi?

-5-6-sinf o'quvchilari bo'ladi, ustoz deyishadi-o'quvchilar.

-Demak, shu yoshida murg'ak go'dak buvisi Eson Davlatbegim, onasi Qutlug'nigorxonim ukalari Jahongir mirzo va Nodirshoh mirzo,opasi Xonzodabegim,barcha saroy ahli, butun Farg'ona va Andijon xalqining tinchligi va xavfsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan ekan-a?

Ha bunday mas'uliyatni his etish faqat sheryurak kishilarga xos, uning uchun "Bobur" bo'lish kerak edi... Zamon shuni talab qilar edi. Yosh shahzodaning bolaligi allaqachon tugagan edi...

O'g'lining vafotidan kuyingan, chorasiz qolgan Eson Davlatbegim Zahriddin Muhammadga murojaat qilib; -Bobongiz taxtini qutqaring bolam, bo'lmasa barchamizning hayotimiz xavf ostida qoladi. Hatto shoh otangizni taxti ham siz uchun omonat... Ukangiz Jahongir mirzo tarafdorlari undan umidvor.. Yoki otangizni hududini ikkiga bo'lish kerak...

Katta onasining bu so'zi yosh Bobur mirzoni yurak bag'rini ezib yubordi.

\_Yana bo'linishmi? Yo'q bo'linish emas, taxtni birshtirish, kengaytirish butun Movarounnahrni birlashtirish kerak, shunda barcha urushlarning oldi olinur.

"Taxtni birlashtirish kerak" deb o'ylardi Bobur mirzo....

Buvisi Eson Davlatbegim va onasi Qutlug'nigorxonimning bu iltijoli nidosi yosh Bobur mirzoni qandaydir chora ko'rishga undardi. U o'z tengdoshlari va yosh yigitlarni yig'ib tinmay harbiy mashqlar o'tkazar, ba'zan ikki yosh bolani ikki yelkasiga qo'yib qal'a bo'ylab yugurib mashq qilar, qilch o'ynatib o'rtoqlari bilan ot ustida tinmay nayzabozlik qilar edi...

Uning murg'ak qalbi o'z g'am-anduhlarini bu ojizalarga ayta olmasdi. U ham otasi kabi qo'lga qalam olib butun his hayajonlarini o'z ruboiy va g'azallarida bayon etdi. Keyinchalik bu daftaru-davotlari va qalami bir umr Z.M Bobur mirzoning hayot yo'llarida hamroxi eng yaqin sirdoshi bo'lib qoldi.....



Charxning men ko'rmagan jabru-jafosi qoldimu?

Xasta ko'nglim chekmagan dardu-balosi qoldimu?

Mani xor ettiyu qildi o'zni muddaiyg'a parvarish....

Dahru-dun parvarni o'zga muddaosi qoldimu?

(Davomi bor....)

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

- 1.Z.M.Bobur “ Boburnoma” T-1993yil
- 2.P.Qodirov “Yulduzli tunlar”T -1972 yil
- 3.P.Qodirov “Humoyun va Akbarshoh” T-2015y